

O‘ZBEKISTON – MINTAQADA TINCHLIK VA BARQARORLIK TASHABBUSKORI

Yangi O‘zbekiston dunyoda tinchlik va totuvlik bo‘lishi, mintaqada do‘stlik va o‘zaro ishonch kayfiyati hukm surishini istovchi xalqaro huquqning eng jonkuyar subyektidir. Tahlilchi sifatida ta’kidlashni istardimki, 2017–2024-yillarda dunyoning eng yuksak minbarlaridan turib, dunyoda tinchlik o‘rnatish, jahondagi muammoli masalalarni o‘zaro kelishgan holda hal etish, ishonch inqiroziga barham berish, o‘zaro iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikni yanada kengaytirishga xizmat qiluvchi takliflarni eng ko‘p ilgari surgan davlat rahbari aynan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hisoblanadi.

Yana bir narsani alohida ta’kidlash kerakki, 2017-yildan boshlangan tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasida Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash eng ustuvor masala sifatida belgilangan. Xususan, davlatimiz rahbari 2017-2023-yillarda mintqa mamlakatlari manfaati nuqtayi nazaridan jami 240 dan ziyod muhim va dolzarb taklif hamda



tashabbuslarni, ezgu g‘oyalarni ilgari surdi, xususan: *birinchi*, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida: o‘zaro do‘stlik aloqalarini yanada mustahkamlash, o‘zaro savdo-sotiq borasida yangilliklar joriy etish, mintaqada energetik xavfsizlikni ta’minlash, mintaqaning logistik imkoniyatlarini oshirish, ilmiy, madaniy, san’at kabi 20 dan ziyod istiqbolli sohalarda

hamkorlikka qaratilgan jami 140 ga yaqin taklif va tashabbuslar; *ikkinchi*, mintqa davlatlari va jahon mamlakatlari o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish

va rivojlantirish, mintaqaga investitsiyalarni jalb etish, tarixiy savdo markazi sifatidagi maqomini qayta tiklash, mintqa mamlakatlari mahsulotlarini xorijga eksport qilish imkoniyatlarini oshirish, jahondagi muammolarni hal etishda birgalikda harakat qilishga qaratilgan 90 dan ziyod takliflar shular jumlasidan.

Davomi 3-betda

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

HAR BIR TOPSHIRIQDA XALQIMIZ TAQDIRI VA FAROVONLIGI MUJASSAM

Prezidentimiz rahbarligida yangi bosqichga ko‘tarilgan islohotlar jarayoni har bir sohaga keng qamrovli yechimlar bilan kirib bormoqda. Xususan, farmatsevtika bugun mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo‘lish bilan birga xalq salomatligini ta’minlashda muhim o‘rin tutuvchi soha sifatida yangi rivojlanish bosqichiga o‘tmoqda.

Davlatimiz rahbari nutqlaridan birida “Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida juda katta islohotlarni amalga oshiryapmiz. Hech bir soha e’tibordan chetda qolayotgani yo‘q. Lekin islohotlar “qog‘ozda” qolib ketmasligi kerak. Vazirlik va tarmoq rahbarlari, hokimlar joylarda ularning ijrosini so‘zsiz ta’minlashi shart”, deya ta’kidlagan edi.

Keyingi sakkiz yilda mamlakatimiz farmatsevtika sanoatini rivojlantirishga qaratilgan 40 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat chiqarildi. Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari doirasida qator dastur va loyihalar amalga oshirilmog‘da. Bularning barchasi aholining sifatli va xavfsiz dori-darmonga ehtiyojini qanoatlantirish, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashadi.

Davomi 2-betda

Tahlil va taqqos

MA’NAVIYAT — MILLAT RUHI, SHAXS MAS’ULIYATI

Ma’naviyatga berilgan ta’riflar ko‘p. Kimdir uni inson ruhi, kimdir axloq, kimdir qadriyatlarimiz bilan bog‘laydi. Yana kimdir esa unga madaniyat bilan egizak tushuncha sifatida qaraydi. Barcha ta’rif-u tavsiflarda, albatta, jon bor. Boisi, ma’naviyat inson olamidagi eng noyob xazinadir. Shu sababli uning insoniyat bilan bog‘liq har narsada o‘z mavqei, o‘rni bor.

Ayniqsa, bugun butun dunyoda ishonch inqirozi, qadriyatlar transformatsiyasi, geosiyosiy tahlikalar avj olayotgan bir paytda ma’naviyat ehtiyoj, najotga aylanib bormoqda.

Shu bois, yurtimizda ma’naviyatga jamiyatni harakatga keltiruvchi kuch, uning joni va ruhi, taraqqiyotning o‘q tomiri sifatida yuksak maqom berilmoqda. Mamlakatimiz, xalqimiz o‘z oldiga qo‘ygan ulkan, ezgu maqsad — Uchinchi Renessans poydevorini qurish, kelajak darvozalarini ochishning asosi sifatida qaralmoqda.

Buyuk bobomiz Amir Temur kelajak avlodlari uchun qoldirgan nasihatlari, tuzuklari ichida bunday jumla borki,

unda “qudratli nabiralirim”, deya katta ishonch bildirib, “Saltanat boshqarish haqida qo‘llanma (dasturilamal)” yozib qoldirdim, toki farzandlarim va avlodimdan bo‘lganlarning har biri unga muvofiq ish yuritsin. Ular tolel baland millatining sharofatini, muhabbat va do‘stligim orqali qo‘lga kiritgan davlat va saltanatni saqlagaylar”, deydi.

Bu tuzuklarda jamiyatni adolat, ilm-ma’rifat, keng mulohaza, muhabbat va do‘stlik asosiga qurish eng asosiy omil sifatida ko‘rilgan. Shu sabab “yuz ming otdiq askar qila olmagan ishini bir to‘g‘ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin”ligi aytiladi.

Davomi 5-betda



TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMI: YANGI TEMIR YO‘L YO‘LAGI YANGI IMKONIYATLAR DAVRIGA ZAMIN YARATADI

Taraqqiyot odimlari

O‘tgan yilning oxiri nafaqat mamlakatimiz, balki jahon transport-logistika tizimida ham katta loyiha ishga tushirilishi bilan esda qoladigan bo‘ldi. Gap shundaki, 27-dekabr kuni Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston yangi magistral temir yo‘li qurilishiga start berildi. Ushbu temir yo‘l qurilishi boshlanishiga bag‘ishlangan marosim ishtirokchilariga Prezidentimiz murojaat yo‘lladi.



Davlatimiz rahbari o‘z murojaatida mazkur yirik loyihaning ahamiyati xususida so‘z yuritarkan, “Bu do‘st mamlakatlarimiz salkam 30 yil davomida itilib kelgan tom ma’nodagi tarixiy voqeadir. Sizlarning ishtirokingizda xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan yangi transport arteriyasi yaratilmoqda. U Markaziy Osiyo mintaqasini Xitoy bilan qisqa yer usti yo‘li

orqali bog‘laydi, davlatlarimizning ko‘p qirrali hamkorligini yanada kengaytirish va strategik sherikligini mustahkamlashga xizmat qiladi”, deya ta’kidladi.

Darhaqiqat, Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston xalqaro temir yo‘li uzoq yillar davomida muhokama qilib kelinayotgan loyiha hisoblanadi va uni bunyod etishga kirishilgani mamlakatlar

hamda mintqa iqtisodiyoti rivojiga katta hissa qo‘shadi. U Xitoyning “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusining muhim tarkibiy qismi sifatida uch mamlakat o‘rtasidagi yangi davrda har tomonlama strategik sheriklik doirasidagi hamkorlik ramzidir.

Loyiha tufayli Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari Yevropa va Osiyo

o‘rtasidagi transport xabiga aylanadi. Tranzit yuklarni o‘tkazish orqali transport xizmatlari eksportini sezilarli darajada oshirish, mintaqani madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnologiya va sanoatni rivojlantirishning o‘ziga xos “drayveri”ga aylantirish imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Natijada mintqa yirik jahon savdo markaziga aylanishi mumkin.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari — Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya — Yevropa Ittifoqi mamlakatlari yo‘nalishi bo‘yicha Xitoy va Yevropani bog‘lovchi muqobil yo‘lak paydo bo‘ladi.

Davomi 4-betda

AHOLI SALOMATLIGINI TA’MINLASH — IJTIMOIY SIYOSATIMIZNING USTUVOR YO‘NALISHI

Tibbiyot

Keyingi yillarda mamlakatimizda sog‘liqni saqlash sohasini tubdan yaxshilash, tibbiy xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish, malakali tibbiy kadrlarni tayyorlash, boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Axir gap eng muhim qadriyat — inson salomatligi va hayoti to‘g‘risida ketmoqda.

Milliy sog‘liqni saqlash tizimi transformatsiyasi zamonaviy dunyo ilgari surayotgan vazifa va tahdidlarni hisobga olib, puxta va izchil amalga oshirilmoqda. Insonlar salomatligini yaxshilash va hayot darajasini oshirishga qaratilgan ustuvorliklar aniq belgilanmoqda. Shubhasiz, bunda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimidagi yangicha yondashuvlar va aholini to‘liq qamrab olishga asoslangan fundamental o‘zgarishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda 1264 ta oilaviy shifokorlik punkti, 1084 ta oilaviy poliklinika va 209 ta ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika faoliyat yuritaypti. Tibbiy xizmatni aholiga yaqinlashtirish, “Bir qadam” tamoyilini amalga oshirish maqsadida mahalla fuqarolar yig‘inlarida tibbiyot punktlari tashkil etildi. Natijada 34 milliondan ortiq aholi tibbiy xatlovdan o‘tkazildi.

Davomi 2-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda

HAR BIR TOPSHIRIQDA XALQIMIZ TAQDIRI VA FAROVONLIGI MUJASSAM



Abdulla AZIZOV,
Farmatsevtika tarmog'ini
rivojlantirish agentligi
direktori

Boshlanishi 1-betda

— ilmiy-amaliy tadqiqotlarni rag'batlantirish;
— qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan dori-darmonlar ishlab chiqarish;
— mahalliy kadrlarni tayyorlash va xorijiy mutaxassislarni jalb qilish.
Klaster faoliyati nafaqat ichki bozorni to'ldirish, balki eksportga yo'naltirilgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga ham qaratilgan.
Farmatsevtika sohasida mahalliylash-tirishni kengaytirish, yangi ishlab

chiqarish tarmoqlarini tashkil etish hamda xorijiy investitsiyani jalb qilish jarayoni jadallashmoqda. Ayniqsa, hududlardagi farmatsevtika korxonalari bu yo'nalishda muhim o'rin tutmoqda. Natijada aholi uchun zarur dori-darmonga talab ichki ishlab chiqarish hisobiga ta'minlanmoqda.

Aholini sifatli va xavfsiz dori-darmon bilan ta'minlash farmatsevtika sohasidagi islohotlarning eng muhim jihatlaridan. Buning uchun:

— dori-darmon ishlab chiqarish jarayonida xalqaro standartlarga rioya qilish;
— barcha mahsulotning xavfsizligi va samaradorligini kafolatlovchi sifat nazorati tizimini takomillashtirish;
— qonunchilik asosida nazorat organlarining mas'uliyatini oshirish muhim.
Dori-darmon ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonini shaffoflashtirish uchun sohada axborot texnologiyalari keng joriy qilinmoqda. Bu mahsulotlarning sifati va miqdorini nazorat qilish bilan birga aholiga oson yetkazib berish imkonini berayotir.

Shaxsiy javobgarlik — taraqqiyot garovi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga qaratilgan 2 ta muhim huquqiy-me'yoriy hujjati qabul qilingani rahbarlarga davlat va hukumat tomonidan qo'yilgan talablar naqadar jiddiy ekanini ko'rsatadi.

Xususan, Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini



ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi hamda tizim tashkilotlarida ijro intizomiga talabni ikki barobar oshirdi.

Bugun farmatsevtika sohasida qabul qilingan hujjatlar tarmoqni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Har bir rahbar:

— berilgan topshiriqlarni o'z vaqtda bajarishi;
— faoliyati natijalari uchun shaxsiy mas'uliyatni zimmasiga olishi;
— xalq manfaatini birinchi o'ringa qo'yib ish yuritishi zarur.

Mas'uliyatli rahbarlikning asosiy mezonlari aholi farovonligiga xizmat qilish va fuqarolarning sifatli tibbiy xizmatlar bilan ta'minlanishidir. Farmatsevtika sohasidagi islohotlar faqat temir intizom, mas'uliyat va

xalq manfaatiga sadoqat orqali muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin.

Farmatsevtika sohasi rivojiga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar aholining salomatligini yaxshilash bilan birga O'zbekistonning xalqaro maydondagi mavqegini mustahkamlashga qaratilgan.

Agentlik tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident hujjatlari va topshiriqlarining o'z vaqtida, sifatli va to'liq ijro etilishi yuzasidan “texnologik zanjir” asosida Adliya vazirligi, Vazirlar Mahkamasi va Hisob palatasi bilan birgalikda tizimli ishlar bajarilmoqda.

Tahlillarga ko'ra, 2024-yilda “Ijro.gov.uz” elektron tizimida nazoratga olingan, agentlik mas'ul bo'lgan 147 ta hujjat va topshiriq ijrosi o'z vaqtida ta'minlangan.

Mazkur topshiriqlarni o'z vaqtda va sifatli bajarish borasida agentlik tomonidan qator tizimli ishlar qilindi.

boshlanib, o'qishga ilk abituriyentlar qabul qilindi.

Farmatsevtika texnik universitetida nafaqat yurtimiz yoshlarini, balki **Markaziy, Janubiy va Sharqiy Osiyo** hamda **MDH** davlatlaridan kelgan yigit-qizlarni o'qitish rejalashtirilgan.

Shu maqsadda universitet mutaxassislari Buyuk Britaniyaning De Monfort, Sanderlend universitetlari ta'lim dasturlari doirasida malaka oshirib qaytdi. Janubiy Koreya va Britaniyadan soha mutaxassislari jalb qilinib, klasterning ilmiy kadrlar salohiyati oshirib borilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 10-apreldagi “2019-2021-yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog'ini yanada jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonida mamlakatda faoliyat yurituvchi ishlab chiqarish, ulgurji, saqlash va aholiga yetkazib berish punktlari (dorixonalar) zarur amaliyotlar bo'yicha standartlarni joriy etgan holda ishini tashkil etishi belgilangan.

O'tgan davrda ishlab chiqarish obyektlaridan 54 tasida GMP, ulgurji tashkilotlardan 340 tasida xalqaro GDP standartlari joriy etildi. 2024-yilga qadar hech bir dorixonada “**Zarur dorixona amaliyoti (GPP)**” standarti joriy etilmagan bo'lsa, 2024-yil 1-dekabr holatiga ularning soni **2000 dan** ortdi.

Prezidentimiz belgilab bergan ushbu vazifalar ijrosini o'z vaqtida, sifatli va samarali bajarish xalqning xavfsizligi va sifatli dori-darmondan himoyalashini kafolatlaydi.

Davlatimiz rahbari 2024-yil 18-dekabrda “Tashkent Pharma Park” innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmatsevtika klasteriga tashrifi davomida ham iqtisodiy, ham ijtimoiy ahamiyatga ega bu sohaga davlat tomonidan keng imkoniyatlar yaratilayotganini alohida ta'kidlab hamda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Ularim bajarishda har bir tashkilotda **tizim, tartibli boshqaruv, temir intizom** va rahbarlarning bugungi talabdan kelib chiqib, **keng dunyoqarashga ega bo'lishi** alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijro intizomi va mas'uliyatli rahbarlik tizimi farmatsevtika sohasini rivojlantirish yo'lida asosiy ko'priq vazifasini o'taydi. Mutasaddirlar topshiriqlarni bajarishda xalq manfaatiga xizmat qilishi, islohotlar esa hayotga tatbiq qilinishi lozim. Shu yo'nalishda har bir rahbar o'z zimmasiga yuklatilgan mas'uliyatni to'liq his qilgan holda yangi O'zbekiston taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadi.

Yangilanayotgan farmatsevtika tarmog'i yangicha yondashuvlar, sifatli dori-darmon va farovon hayot kafolatidir.

Tibbiyot



Yelena BORISOVA,
Oliy Majlis
Qonunchilik palatasining
Mehnat, sog'liqni saqlash
va ijtimoiy masalalar qo'mitasi
raisi o'rinbosari

Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, tibbiy xizmatga ehtiyoji bor kattalar va bolalarning to'rtta guruhi shakllantirildi. Zararli odatlari mavjud va past jismoniy faollikka ega 11,1 milliondan ortiq aholini qamrab olgan ikkinchi guruh alohida e'tiborga molik. Ular bilan sog'lom turmush tarzini targ'ib etish va kasalliklar profilaktikasi borasida keng qamrovli ishlar olib borish zarur.

Surunkali kasalliklarga (asosan, yurak-qon tomir) chalingan fuqarolar uchunchi guruhga kiritilgan. Ular uchun tegishli davolash rejaları tasdiqlangan. Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda yetti milliondan ortiq yurtodoshimiz respublikaning ambulator va stasionar muassasalarida davolanagan.

Mamlakatimizda o'lim holatining eng keng tarqalgan sabablari hisoblangan onkologik kasalliklarni erta aniqlash, yurak-qon tomir kasalliklari va qandli diabet skrinininga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bunda Prezidentimizning mazkur o'ta muhim masalalardagi tashabbuslariga urg'u berish joiz. Xususan, davlatimiz rahbari Oliy Majlis yig'ilishlarida xotin-qizlarda saratonni erta aniqlash tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha topshiriq berdi. Buning uchun har yili 35, 45, 55 yoshli 700 ming nafar xotin-qiz bachadon bo'yni saratonni skriningsi va odam papillomasi

virusiga PSR-skrining tekshiruvdan o'tkaziladi. Bunda 9-13 yoshli 1,2 million nafar o'smir qizlarning odam papillomasi virusiga qarshi vaksinatitsiyasini 100 foizga yetkazish kerak.

Har ikki yilda bir marta 45-65 yoshli 3,8 million nafar ayollarda ko'krak bezi saratonini erta aniqlash bo'yicha skrinning tekshiruvi o'tkaziladi. Eng muhimi, ushbu tadbirlardan olinajak natijalar. Bunda xotin-qizlarda onkologik kasalliklarni erta aniqlash ko'rsatkichi 85 foizga yetkazilib, o'lim ko'rsatkichi 4,5 foizga qisqaradi. Bu raqamlar ortida o'z oilasi bag'riga sog'-salomat qaytadigan minglab ayollarning taqdiri turibdi.

Yurak-qon tomir kasalliklari va qandli diabetni erta aniqlash bo'yicha ishlar davom etmoqda. Buning uchun har yili 40 va undan katta yoshli to'qqiz million yurtodoshlarimiz skrinning tekshiruvdan o'tkaziladi. 2024-yilda 6,3 million fuqaro bunday tekshiruvdan o'tdi. Natijada yurak-qon tomir kasalliklari bilan og'rikan 173,5 ming nafar, qandli diabet bilan kasallangan 80,3 ming nafar kishi aniqlandi. Barcha bemorlarga davolanish bo'yicha tegishli tavsiyalar berildi.

Ixtisoslashtirilgan yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish ham rivojlanmoqda. Qayd etish joizki, yurtimizdagi 25 ta ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazi viloyatlarda filiallariga ega, joylarda fuqarolarni tashxislash va ularga maslahatlar berish, shuningdek, davolashda faol. Mutaxassislar doimiy ravishda aholi orasida tibbiy ko'rik o'tkazish uchun eng chekka tumanlarga chiqmoqda.

Viloyatlarda mutaxassislar malakasini oshirish uchun kurslar tashkil qilinmoqdaki, bular ham tibbiy xizmatlar sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. 2024-yil davomida 2500 nafardan ortiq soha mutaxassisi o'z malakasini oshirdi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Buxoro, Namangan, Andijon viloyatlarida buyrak transplantatsiyasi, mikroxiirurgiya, Xorazm viloyatida rekonstruktiv va plastik jarrohlik amaliyotlari faol o'tkazilmoqda. Mamlakat bo'yicha to'rt mingga yaqin bemor 42 turdagi laparoskopik, toroskopik, endovaskulyar jarrohlik vositasida joylarda davolandi.

Barcha hududlarimizga yuqori tibbiy texnologiyalar kirib kelmoqda. Aytish joizki, yurtimizdagi yettita ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazi xalqaro akkreditatsiyaga ega, diagnostika va davolashning betakror usullarini qo'llamoqda. Masalan, Bolalar milliy tibbiyot markazida bolalarda skoliozni radikal korreksiyalash amaliyoti joriy etilgan va ilk marta infeksiyon patologiyasi mavjud



“Har ikki yilda bir marta 45-65 yoshli 3,8 million nafar ayollarda ko'krak bezi saratonini erta aniqlash bo'yicha skrinning tekshiruvi o'tkaziladi. Eng muhimi, ushbu tadbirlardan olinajak natijalar. Bunda xotin-qizlarda onkologik kasalliklarni erta aniqlash ko'rsatkichi 85 foizga yetkazilib, o'lim ko'rsatkichi 4,5 foizga qisqaradi. Bu raqamlar ortida o'z oilasi bag'riga sog'-salomat qaytadigan minglab ayollarning taqdiri turibdi.”

bolalarda suyak ko'migi autotransplantatsiyasi o'tkazildi. Bolalarning yuqori texnologik tibbiy xizmatlarga ehtiyojini hisobga olib, markazda o'rinar soni 180 dan 250 taga ko'paytirildi.

2024-yilda yurtimiz tibbiyoti uchun yana bir juda muhim voqea bo'ldi — Prezidentimiz tashabbusi bilan qurilgan eng zamonaviy, jahon standartlariga mos jihozlangan Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining yangi majmuasi foydalanishga topshirildi. Bu yerda stasionar va ambulator davolanish, jumladan, kimyo terapiyasini ambulator qabul qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan.

Yuqori texnologik operatsiyalarni odamlarga yaqinlashtirish to'g'risida so'z yuritilar ekan,

Toshkentda davlat tibbiy sug'urta mexanizmini joriy etish qanday o'tyapti? Maxsus tayyorgarlikdan o'tgan oilaviy shifokor, patronaj hamshira, doydadan iborat tibbiy brigadalar, ko'rikdan o'tkazish uchun maxsus xonalar tashkil etilgan. 1703 ta tibbiy brigada shakllantirilgan va tibbiy personal bilan to'liq ta'minlangan.

Shu bilan bir qatorda, shifokorlar ishi ham optimallashtirilmoqda. Ya'ni ularning ayrim vazifalari amaliyotchi hamshiralarga berildiki, bu har bir bemorni ko'rikdan o'tkazishga ketadigan vaqtni oshirish imkonini berdi. “Elektron poliklinika” va “Elektron shifoxona” axborot tizimlari takomillashtirildi. Yagona tibbiy axborot tizimi joriy etildi. “Elektron retsept” tizimi asosida 11 turdagi dori vositasini bepul berishga qaratilgan sinov loyihasi amalga oshirilmogda.

Tez tibbiy yordam xizmati faoliyati ham takomillashtirilmoqda. “Sall-markaz”lar faol ishlab turibdi. Natijada tez yordam brigadalarining xizmat ko'rsatish uchun qatnov hududi kichraydi, ularning kechikishi 1,1 foizdan 0,3 foizga qisqardi.

Muxtasar qilib aytganda, yangi O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar malakali tibbiy yordam sifatini oshirishga qaratilgan. Biroq barqaror natijalarni qo'lga kiritish uchun moliyalashtirish, kadrlarni tayyorlash, infratuzilmani modernizatsiyalash bo'yicha ishlarni davom ettirish, birlamchi bo'g'inga ega e'tiborni kuchaytirish lozim. Telediditsina kabi yangi texnologiyalarni integratsiyalash, shuningdek, davlat tibbiy sug'urtasini joriy etishga e'tiborni kuchaytirish kerak. Aholi salomatligini profilaktik dasturlar vositasida yaxshilashga erishish juda muhim.

Shuningdek, farmatsevtika mahsulotlari samaradorligi va xavfsizligini nazorat qilish tizimini takomillashtirish, dori vositalari bozori shaffofligini ishlab chiqarishdan tortib, to sotib olish va sotishgacha bo'lgan jarayonlarda ta'minlash lozim. Bunda narx-navonni asossiz oshirish kabi holatlarga yo'l qo'yg'uslik kerak.

Biz yuqorida to'xtalib o'tgan islohotlar sog'liqni saqlashning aholi ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga ega barqaror tizimini yaratish imkonini beradi. Zero, buyuk ishlarni sog'lom millat amalga oshiradi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!





Ilhom MAHKAMOV,
transport vaziri

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Eron, Afg‘onistonning Xitoy va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari bilan eksporti va importini rivojlantirish uchun ham muqobil yo‘lak vujudga keladi. Shu tariqa Qirg‘iziston va O‘zbekiston Xitoy orqali Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri temir yo‘l orqali chiqish, Xitoy esa o‘zining “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusiga muvofiq Yevropa Itifoqi mamlakatlariga qo‘shimcha quruqlik yo‘lagiga ega bo‘ladi.

Shuningdek, bunday keng ko‘lamli loyihaning amalga oshirilishi ishtirokchi mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi. Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston temir yo‘li ushda birgalikda ishlab siyosiy va iqtisodiy barqarorlikka, shuningdek, yo‘nalish bo‘ylab infratuzilmani rivojlantirishga yordam beradi. Yangi yo‘llar, bekatlar va logistika markazlari hudud rivoji uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratadi. Millionlab odamlar hayotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu loyiha nafaqat transport aloqalarini yaxshilaydi, balki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish uchun ham yo‘l ochadi.

Birinchidan, temir yo‘lning ishga tushirilishi iqtisodiy o‘shishga kuchli turtki beradi. Yangi transport yo‘lagi yuklarni yetkazib berish vaqti va xarajatlarini qisqartiradi. Bu esa eksportning raqobatbardoshligini oshirib, tovarlarni iste‘molchilar uchun yanada arzonlashtiradi. Temir yo‘l qurilishi va undan foydalanish minglab odamlarni, ayniqsa, ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarni ish bilan ta‘minlaydi. Transport xarajatlarini kamaytirish va logistikani yaxshilash kichik va o‘rta biznesni, ayniqsa, ishlab chiqarish va savdo sohalarini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, transport qulayligi yaxshilanishi yana bir muhim afzallikdir. Temir yo‘l olis hududlarni yirik iqtisodiy markazlar bilan bog‘laydi, bu esa odamlar va tovarlar harakatini osonlashtiradi. Kelajakda sayohatlarni tezroq, qulayroq va arzonroq qiladi.

Uchinchidan, temir yo‘l mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi ijtimoiy va madaniy aloqalarni mustahkamlaydi. Odamlar o‘zaro hamkorlik qilish, tajriba va bilim almashish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Aholi mobilligini oshirib, madaniyatlar almashinuvi va xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro anglashuvni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Loyiha Xitoy va Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq davlatlari, Afg‘oniston o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni namoyish etib, ularning munosabatlarini yanada jipslashtiradi.

Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston temir yo‘lini geoiqtisodiy jihatdan Markaziy Osiyo transport infratuzilmasini

rivojlantirish va Xitoy bilan savdo aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan muhim tashabbus, desak o‘rinlidir. U mintaqada yuk tashish vaqti va xarajatlarini qisqartirish, ishtirokchi mamlakatlarning tranzit salohiyatini oshirish, Xitoy, Qirg‘iziston va O‘zbekistonning iqtisodiy integratsiyasini kuchaytirish, shuningdek, Markaziy Osiyoning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini ta‘minlaydi. Investitsiyalarni jalb qilib, infratuzilmani rivojlantiradi.

Temir yo‘l Yevroosiyo makonida savdo oqimlarini sezilarli darajada diversifikatsiya qilish uchun katta ahamiyatga ega. Logistika aloqalarini yaxshilash uchun yangi imkoniyatlar ochadi, shuningdek, loyihada ishtirok etuvchi hududlarning raqobatbardoshligini oshiradi.

Ushbu yo‘lak Xitoy va Yevropa o‘rtasidagi temir yo‘l masofasini 900 kilometrga qisqartiradi va mavjud yo‘nalishlarga muqobil bo‘ladi. Tahlillarimizga ko‘ra, Xitoyning Turkiya, Eron, Turkmaniston, Afg‘oniston, Pokiston kabi davlatlar bilan yuk tashish hajmi qariyb 50 million tonnani tashkil etib, yuk tashishning asosiy hajmi dengiz transporti orqali amalga oshirilgan. Yuklarning bir qismi Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston yo‘nalishiga jalb etilsa, hajm taxminan 10 million tonnaga yetishi mumkin, yo‘nalish bo‘ylab yuk tashish barqaror tashkil etilsa, 2040-yilga borib yuk tashish hajmi bir necha barobar oshadi.

O‘zbekiston — Afg‘oniston — Pokiston temir yo‘l liniyasini qurish loyihagini amalga oshirishda, shuningdek, Hindiston — Pokiston — Afg‘oniston — O‘zbekiston — Qirg‘iziston — Xitoy yo‘nalishi bo‘yicha eng ko‘p aholiga ega bo‘lgan Hindiston va Xitoyni temir yo‘l tarmog‘i bilan bog‘laydi.

Bugungi kunda Xitoy va Hindistonning umumiy temir yo‘llari yo‘q. Chunki bu mamlakatlar tabiiy to‘siq — Himolay tog‘lari bilan ajralib turadi hamda savdo Tinch va Hind okeanlari bilan dengiz transporti orqali bajariladi. Xitoyning g‘arbiy kontinental mintaqasi — Shinjon-Uyg‘ur avtonom hududi tez sur‘atlar bilan rivojlanayotgani va yuklarni Hindiston portlariga yetkazish uchun Xitoyning butun hududini uning janubiy hududlarigacha kesib o‘tish kerakligi yuk tashish uchun noqulay omil hisoblanadi.

Iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, Yevroosiyaning asosiy portlari bandligi, shuningdek, yuklarni yetkazib berish tezligini oshirish zarurati tufayli Xitoy quruqlikdagi transkontinental yo‘nalishlar bo‘yicha tashishlarni qayta yo‘naltirish va logistikani rivojlantirish bo‘yicha ishlarni kuchaytiradi. Bugungi voqelikda mavjud yo‘laklarning o‘tkazuvchanlik qobiliyati yetishmayotgani sezilmoqda.

Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston va O‘zbekiston — Afg‘oniston — Pokiston loyihalari amalga oshirilishi bilan ilk bor Janubiy Osiyo temir yo‘llarini butun Yevroosiyo transport tarmog‘i bilan, SHHTning barcha ishtirokchilarini esa yagona temir yo‘l magistrali bilan bog‘lash imkoniyati paydo bo‘ladi.

O‘zbekistonning hozirgi geografik joylashuvi istiqbolli tranzit transport yo‘laklarini shakllantirish vazifasini qo‘ymoqda. Shu tariqa O‘zbekiston kelajakda Shimol — Janub va G‘arb — Sharq o‘rtasidagi chorraha bo‘lishi mumkin. Bu yerda respublikamizning butun hududi, umuman, Markaziy Osiyo yagona yirik logistika xabi — jahon ahamiyatiga ega bozor



sifatida ko‘rib chiqiladi. Yaqin kelajakda transport tarmog‘ini rivojlantirish strategiyasi to‘g‘ri tuzilgan, uni jahon temir va avtomobil yo‘llari tarmog‘i bilan integratsiyalashgan holda transport sohasida yuk aylanmasi, yuklarni yetkazib berish tezligi, tranzit yuklar hajmi, yo‘lovchilar aylanmasi va shu bilan birga, tranzit sayyohlar oqimini oshirish kabi asosiy ko‘rsatkichlarga erishiladi. Bu esa, o‘z navbatida, multimodal tashuvlarning yanada o‘sishi va rivojlanishi hisobiga Markaziy Osiyo mintaqasiga jozibadorlik va mintaqadagi transport yo‘nalishlarining raqobatbardoshligini oshiradi.

Qulaylik — jamoat transporti xizmatida asosiy mezon

Bugun O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, iqtisodiy yuksalish va ulkan yangilanishlar maydoniga aylandi. Aholi turmush darajasi yanada yuksalmoqda. Shaharlar va qishloqlar obod bo‘lib boryapti. Prezidentimiz tashabbusi bilan barcha sohalarda olib borilayotgan keng ko‘lamli

“**HUDUDLARDA JAMOAT TRANSPORTI HARAKAT TARKIBINI YANGILASH BO‘YICHA TADBIRKORLAR TOMONIDAN YANA 250 DONADAN ORTIQ ZAMONAVIY AVTOBUSLARNI XARID QILISH MAQSADIDA ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARGA PUL MABLAG‘LARI O‘TKAZIB BERILGAN. MAZKUR AVTOBUSLAR HAM BOSQICHMA-BOSQICH RAVISHDA HUDUDLARGA OLIB KELINADI.**”

islohotlar o‘z mazmun-mohiyati bilan nafaqat mamlakat taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarmoqda, balki yangi O‘zbekiston modelini dunyoga namoyon etmoqda.

“Inson qadri uchun” tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi bugun oddiy insonlar hayoti, kundalik turmushida, qo‘yingiki, har bir kunimizda o‘z aksini topmoqda.

Qayd etish joizki, so‘nggi yillarda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan mamlakatimiz transport tizimi jahon talablari darajasida shakllanmoqda. Xususan, bu boradagi eng muhim yo‘nalish jamoat transporti tizimini rivojlantirish bilan bog‘liq masaladir. Zero, jamoat transporti odamlarning uzog‘ini yaqin qiladigan, aholi kayfiyatiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta‘sir

maxsus panduslar bilan jihozlangan. Jamoat transporti jozibadorligini oshirish, avtobuslarning yo‘nalishlarda muntazam va bir maromda harakatini tashkil etish orqali foydalanuvchilar qamrovini keskin ko‘paytirish maqsadida Nukus shahri va viloyat markazlari jamoat transporti tizimi hamda infratuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha Bosh rejarlar ishlab chiqildi.

Yana bir muhim o‘zgarish — hududlarda ham jamoat transporti tizimiga brutto-shartnomalar joriy etildi. O‘tgan yili xarid qilingan yangi avtobuslarning barchasi hududlarda brutto-shartnoma asosida yo‘nalishlarga joylashtirildi.

Brutto-shartnomalar bu — yo‘lovchi tashishni tashkil etish modeli bo‘lib, unda barcha tushumlar shahar byudjetining maxsus hisob raqamiga o‘tkaziladi va shahar ma‘muriyati yo‘lovchi tashuvchiga yo‘nalishlar bo‘yicha to‘lovlarni bajarilgan ish hajmidan kelib chiqib, sifat nazorati ostida o‘tkazib beradi.

Yangi moliyalashtirish va boshqaruv modeli yo‘lovchi tashish bilan shug‘ullanuvchilar bajarishi zarur bo‘lgan 15 ta asosiy shartlarni o‘z ichiga oladi. Yo‘lovchi tashuvchilarni baholashning asosiy mezonlari miqdoriy ko‘rsatkich, ya‘ni yo‘nalishga shartnomada ko‘rsatilgan miqdordagi avtobuslar chiqishi va belgilangan reyslarni amalga oshirish hisoblanadi. Agar yo‘lovchi tashuvchi miqdoriy ko‘rsatkichning 90

foizdan ko‘prog‘ini bajarsa, shahar hokimligi uning xarajatlarini qoplaydi.

Yo‘lovchi tashuvchi sifat ko‘rsatkichi — harakat jadvali va intervallariga rioya qilishi (avtobus yo‘lga qaysi vaqtda chiqishi, qachon ma‘lum bir bekatga kelishi), shuningdek, sanitariya sharoitlari (salon va avtobusning tozaligi, haydovchilarning tashqi ko‘rinishi) ga qarab foyda oladi.

2024-yilda Andijon, Buxoro, Jizzax, Qarshi, Samarqand, Namangan, Guliston, Navoiy, Farg‘ona va Urganch shaharlarida brutto tizimi yo‘nalishlari tashkil etildi.

Shuningdek, brutto-shartnoma tizimida avtobuslarning bajarilgan ish hajmi hamda sifat mezonlarini monitoring va nazorat qilish yuzasidan vazirligimizning hududiy bo‘linmalari huzurida “Yo‘lovchi tashishni monitoring va nazorat qilish” davlat muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, Markazlashgan dispatcherlik xizmati tashkil etildi.

Markazlashgan dispatcherlik xizmati tomonidan brutto-shartnoma asosida faoliyat ko‘rsatilayotgan yo‘nalishlardagi qatnovlar nazorat qilib borilmoqda. Natijada hududlarda jamoat transporti qatnovidagi ijobiy o‘zgarishlarni bugun yo‘lovchilar o‘z kundalik hayotida his etmoqda.

Brutto-shartnomasiga o‘tkazilgan yo‘nalishlarda harakat tarkiblari zamonaviy avtobus va elektrobuslarga o‘zgartirilgani, qatnovlar muntazamligi, oraliq vaqtlarning 40-30 daqiqadan 10-5 daqiqagacha qisqartirilishi, kechki soat Toshkent shahrida 00:00 gacha va boshqa shaharlarda 22:00 gacha qatnovlar yo‘lga qo‘yilishiga erishildi.

Bugungi kunda hududlarda ham jamoat transporti tizimini raqamlashtirishning yangi tartib va usullari joriy etib kelinmoqda. Elektron to‘lovlarni ommalashtirish, yo‘lovchilar uchun qulay tariflar hamda taqabulashgan tariflarni joriy etish kabilar shular jumlasidan.



Ya‘ni jamoat transportida to‘lov tizimidan tortib, kunlik yo‘lovchi tashuvlari soni, sifatini nazorat qilishning bari avtomatlashtirilgan tizimga o‘tdi. Ayniqsa, to‘lovlarni naqd pulda emas, balki ATTO va bank kartalari orqali amalga oshirish ko‘pchilgimizga qulaylik yaratayotgani rost. Elektron tizimlarni qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad, avvalo, shaffoflikni ta‘minlashga qaratilgan.

Ayni shu maqsadda bugungi kunda Samarqand, Urganch, Qarshi, Andijon, Qo‘qon, Buxoro, Zarafshon, Yangiyo‘l, Nukus va Namangan shaharlari avtobuslariga elektron to‘lov tizimi to‘liq joriy etildi.

Buning natijasida Toshkent shahrida avtomatlashtirilgan to‘lov tizimidan foydalanish 70 foiz, Samarqand va Urganch shaharlarida 20 foiz va boshqa shaharlarda 10 foizga yetdi. Shuningdek, Toshkent shahar avtobus yo‘nalishlarida avtomatlashtirilgan to‘lov tizimini takomillashtirish yuzasidan hukumat qarori tasdiqlanib, 2025-yil 1-yanvardan boshlab shahar avtobuslarida naqd pulni qabul qilish amaliyotidan to‘liq voz kechildi. Mazkur tartibni joriy qilish yuzasidan Toshkent shahrida bekatlar va ularga yaqin nuqtalarda QR-kodli chiptalar xarid qilish uchun 5000 tadan ortiq infokioskalar tashkil etildi.

Ushbu yo‘nalishdagi ishlar natijasini aniq misollar bilan ko‘radigan bo‘lsak, xususan, Namangan shahri uchun Xitoyning avtobus ishlab chiqaruvchi “Yutong” kompaniyasidan

yo‘lovchilar uchun barcha qulayliklarga ega bo‘lgan, siqilgan tabiiy gazda ishlovchi 36 dona zamonaviy avtobus olib kelindi.

Mazkur avtobuslarning shahar ichidagi 3 ta yo‘nalishga brutto-shartnoma asosida qatnovi yo‘lga qo‘yildi. Brutto tizimi orqali qatnovlar yo‘lga qo‘yilgunga qadar mazkur yo‘nalishlarda bir kunda 9100 dan ortiq yo‘lovchilarga 15-20 daqiqa oraliq interval bilan jami 54 dona “ISUZU” rusumli kichik sig‘imli avtobuslarda xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, 36 dona zamonaviy avtobuslarning yo‘nalishlarga qo‘yilishi orqali bir kunda 15 ming 300 nafardan ortiq yo‘lovchiga 10-12 daqiqa oraliq interval bilan xizmat ko‘rsatishga erishildi.

Farg‘ona shahri uchun viloyatda yo‘lovchi tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar tomonidan 48 dona “Yutong”, “Zhong Tong” va “Asia Star” rusumli avtobuslar xarid qilindi. Ushbu yangi avtobuslar bugungi kunda 4 ta shahar ichi avtobus yo‘nalishlarida harakatlanmoqda. Mazkur yo‘nalishlarda yo‘lovchilarga brutto-shartnoma asosida xizmat ko‘rsatilmoqda.

Urganch shahri jamoat transporti uchun “O‘zmilliybank” AJning kredit mablag‘lari hisobidan Xitoyning “Zhong Tong” kompaniyasida ishlab chiqarilgan 50 dona zamonaviy avtobuslar xarid qilindi. Ushbu avtobuslar Urganch shahri ichidagi 4 ta avtobus yo‘nalishlariga brutto-shartnoma asosida joylashtirildi. Xarid qilingan avtobuslarning yo‘nalishlarga joylashtirilishi orqali qatnovlarning oraliq vaqti 18 daqiqadan 10 daqiqaga qisqardi, bir kunlik qatnovlar sonini 736 tadan 1024 tagacha oshirildi.

Qarshi shahri uchun 32 dona “Asia Star” rusumli avtobuslar xarid qilinib, brutto-shartnoma asosida joylashtirilib, kunlik yo‘lovchi tashish hajmi 3 barobar, oraliq intervalni esa 2 barobarga qisqartirishga erishildi.

Samarqand shahrida yo‘lovchi tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar tomonidan 27 dona zamonaviy avtobus olib kelinib, 8 ta yo‘nalishga joylashtirildi. Mazkur yo‘nalishlarda brutto shartnomasi asosida harakatlanish yo‘lga qo‘yilgandan so‘ng avtobuslar oraliq intervali 25-30 daqiqadan 10-15 daqiqaga kamaydi.

Shuningdek, Samarqand shahri jamoat transporti tizimini rivojlantirish borasida yana bir muhim loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki mablag‘lari hisobidan “Yashil shaharlar” dasturi doirasida o‘tgan yili shaharga “Yutong” rusumli 36 ta elektrobus olib kelingan edi. 2024-yil davomida yana 64 dona shu rusumdagi elektrobus va ularni quvvatlash uskunalari olib kelinib, ushbu loyiha doirasidagi jami elektrobuslar parki 100 donaga yetkazildi. Mazkur elektrobuslar bugungi kunda bosqichma-bosqich shahar avtobus yo‘nalishlariga joylashtirilmoqda.

Shu bilan birga, hududlarda jamoat transporti harakat tarkibini yangilash bo‘yicha tadbirkorlar tomonidan yana 250 donadan ortiq zamonaviy avtobuslarni xarid qilish maqsadida ishlab chiqaruvchi korxonalarga pul mablag‘lari o‘tkazib berilgan. Mazkur avtobuslar ham bosqichma-bosqich ravishda hududlarga olib kelinadi.

Viloyatlararo, shaharlararo yo‘nalishlarda xavfsiz, arzon va sifatli tashuvlarni tashkil etish ham muhim masala. Shu bois, ushbu turdagi avtobus qatnovlari ikki barobar oshirildi. Hozir respublikamiz bo‘yicha jami 95 ta shahar va viloyatlararo yo‘nalishlarda avtotransport qatnovlari tashkil etilgan. Shundan kuniga Toshkent shahrini boshqa hududlar bilan bog‘lovchi 47 ta yo‘nalishda kuniga 277 ta qatnov hamda boshqa hududlar o‘rtasidagi tashkil etilgan 48 ta yo‘nalishda kuniga jami 355 ta qatnov yo‘lga qo‘yilgan.

Shuningdek, viloyatlararo yo‘nalishlarda chiptalarni onlayn xarid qilish “UZBUS” tizimi joriy qilinib, bosqichma-bosqich ommalashtirish choralarini ko‘rilmoqda.

O‘tgan to‘rt yil davomida xalqaro yo‘nalishlardagi avtobus qatnovlari soni ikki barobarga oshirildi. Bugungi kunda Rossiya, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘izistonning shahar va viloyatlariga jami 39 ta avtobus yo‘nalishlarida 274 ta avtobus qatnovlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Umuman olganda, bugungi kunda O‘zbekiston transport tizimi jadal rivojlanmoqda. Bunda amalga oshirilayotgan yirik va xalqaro ahamiyatga molik loyihalarning o‘rni alohida. Ularning samarasi yaqin yillarda yanada yaqqolroq namoyon bo‘la boshlaydi.



6

2025-yil 7-yanvar, 3-son

www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news

yuz

Maxmudxoʻja Behbudiy
tavalludining 150 yilligiga



Maxmudxoʻja
Behbudiy

Har bir millat, har elning vijdoni tirik boʻlsin,
Nur-u chamanga eltar iymoni tirik boʻlsin,
Hurlik quyoshi balqan zamonni tirik boʻlsin,
Har tomchi qonim ichra jo boʻlgan bu tilxatim,
Mahmudxoʻja Behbudiy, ey ustodim, hazratim.

Falaklarda charx urgan ozoda qushlarim bor,
Holi hayotdan goʻzal pokiza tushlarim bor,
Ichimda sanogʻi yoʻq bahor-u qishlarim bor,
Ochsam, dunyoga boʻylar iztirobim, hasratim,
Mahmudxoʻja Behbudiy, ey ustodim, hazratim.

Boqsang, holing koʻrsatar, koʻzgu-oyina hayot,
Sadoqat suvlariga hamisha tashna hayot,
Millat desang, choʻqqiga eltuvchi zina hayot,
“Samarqand”dan yuksalgan yorugʻ oʻyim, maqsadim,
Mahmudxoʻja Behbudiy, ey ustodim, hazratim.

Yashasin adolat va haqqoniyat — ovozim,
Turkiston olam uzra baland maqom — lavozim,
“Yoshlarga murojaat” — ikkimas, toʻrt til lozim,
Bugun har koʻngil aytar: shul soʻz manim nusratim,
Mahmudxoʻja Behbudiy, ey ustodim, hazratim.

Ilm-u maʼrifati yoʻq padarkushdan asrasin,
Xudbinlik balosidek gʻam-tashvishdan asrasin,
Tafriqa, fitna-fasod, qingʻir ishdan asrasin,
Hazrat bobolarimdan meros duo — hikmatim,
Mahmudxoʻja Behbudiy, ey ustodim, hazratim.

Angladim, “Qasdi safar” dilga sayohat asli,
“Ehtiyoji millat” deb yashamoq rohat asli,
“Vasiyatnoma” ohi jonimga behad asli,
Oʻtmasa yuragimdan, hatto bir soʻz aytmadim,
Mahmudxoʻja Behbudiy, ey ustodim, hazratim.

Allohim, pok tafakkur, basirat kerak elga,
Munavvar-u Choʻlpon-u ham Fitrat kerak elga,
Roʻzi qiyomat qadar sof Ibrat kerak elga,
Vatan, millatdan boshqa yoʻq axir saodatim,
Mahmudxoʻja Behbudiy, ey ustodim, hazratim.

Gʻayrat MAJID,
Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi aʼzosi

Kuzatuv

Haqiqiy ijodkor hech bir bitikni maqsadsiz yozmaydi. Yaxshi badiiy asar yoki publitsistik maqola oʻqib boʻlgach, uning tugab qolganiga achinsangiz, bilingki, bu yozarmanning mahoratidandir. “Yozuvchini yozuvchi qilgan uning kuzatuvlari” degan qarash mavjud. Bu tashbehni jurnalistlarga nisbatan qoʻllash ham mumkin. Shu maʼnoda, bugun xotira va kuzatuvlar murvatini jamiyatimizdagi maʼnaviyat, milliy kontent masalalariga sozlash mavridi, degan xulosaga keldik. Zero, ushbu oʻta muhim va dolzarb mavzuning hali-beri eskirmasligi ayni damda kundek ravshan boʻlib turibdi. Bu ancha keng qamrovli mavzu, bas shunday ekan, Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat kengashining 2023-yil 22-dekabrda Prezidentimiz raisligida boʻlib oʻtgan kengaytirilgan yigʻilishi doirasida soʻz yuritsak, bizningcha, toʻgʻri boʻladi.

ORZULAR OSMONIDAGI OFTOB

YOXUD NAMUNA BOʻLAYOTGAN MAʼNAVIY JASORAT

Tarixiy deb nisbat berilgan ushbu yigʻilishda milliy gʻoyani, teatr va kino sanʼatini rivojlantirish, maʼnaviyat va maʼrifat maskanlari, madaniyat markazlarini ishga tushirish, ayollarning taʼlim olishi va kasb-hunar egallashiga eʼtiborni kuchaytirish hamda boshqa koʻplab tashabbuslar oʻrtaga tashlangan, bu boradagi kechiktirib boʻlmaz vazifalar belgilab olingan edi. Inchinun, oʻshanda qayd etilgan aksariyat ishlar bugunga kelib amalga oshganiga guvoh boʻlib turibmiz.

Davlatimiz rahbari jahon miqyosida taraqqiyot surʼatlari shiddatli tus olgani, oʻta ziddiyatli jarayonlar taʼsiri mamlakatimizda ham sezilayotganini qayd etib, “Tarixdan maʼlum, Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari — uygʻoq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, sanʼat namoyandalari, maʼnaviyat va maʼrifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz oʻz taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadic bobolarimiz kabi Gʻarb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havoddek zarur”, deb taʼkidladi.

Yigʻilishda bir necha yoʻnalishda muhim tashabbuslar ilgari surilgan, har bir mutasaddi oldiga aniq vazifalar qoʻyilgan va ushbu ishlarni amalga oshirish uchun barcha zarur sharoit hamda imkoniyatlar yaratib berilishi maʼlum qilingan edi. Keling, ularning ayrimlari nimalardan iborat boʻlganiga yana bir qur nazar tashlaylik.

Avvalo, maʼnaviyat va madaniyat sohasi uchun metodik asos boʻlib xizmat qiladigan milliy gʻoyani rivojlantirish boʻyicha alohida dastur-hujjat ishlab chiqish lozimligi, ziyolilar, nuroniylar, haj va umraga borib kelgan yurtdoshlarimiz maʼnaviyat targʻibotchisi boʻlishi, odamlarni yaxshilikka boshlashi kerakligi aytili.

Madaniy-maʼrifiy sohadagi ishlarda hokimlar masʼuliyati oshirilishi, tuman va shaharlarda maʼnaviyat va maʼrifat maskanlari ishga tushirilib, hududlardagi 4 ta sektorga qoʻshimcha ravishda maʼnaviyat sektori tashkil etilishi maʼlum qilingdi. Ular joylardagi Maʼnaviyat va maʼrifat kengashlarining ishchi tuzilmasi sifatida faoliyat koʻrsatishi belgilandi.

Teatr sanʼatini rivojlantirish boʻyicha dastur ishlab chiqilib, unda eng yaxshi pyesalar uchun ijodiy buyurtma berish, ijodiy va yordamchi xodimlarning chet el teatrlarida mahoratini oshirish, yosh rejissyorlarni qoʻllab-quvvatlash uchun Mannon Uygʻur nomidagi mukofot taʼsis etish kabilar nazarda tutildi. Korxona va muassasalarda oynning bir sanasi “Teatr kuni” deb belgilanib, xodimlarning teatrlarga borishi yoʻlga qoʻyilishi taklif qilindi.

Har bir tumanda sahnali zal, kutubxona, kinozal va toʻgarak xonalari boʻlgan bittadan madaniyat markazi faoliyati yoʻlga qoʻyilishi, joylardagi 600 dan ziyod badiiy havaskorlik jamoasining moddiy-texnik bazasini yaxshilash boʻyicha dastur qabul qilinib, bunga 100 milliard soʻm yoʻnaltirilishi urgʻulandi.

Maqom va baxshichilik sanʼatini ilmiy asosda oʻrganish va rivojlantirish kuchaytiriladigan, maqom, katta ashula, baxshichilik, atlas va adras, kulollik va zargarlik kabi anʼanalarni davom ettiradigan maktablar yaratiladigan boʻldi.

“Musiqi va raqs sanʼati rivoji qoʻllab-quvvatlanadi. Tanqili ashula va raqs ansambllarining xorijga gastrol safarlari koʻpaytiriladi. Musiqi va raqs sanʼati masalalarini ilmiy oʻrganish, sohada ilmiy kadrlarni koʻpaytirish maqsadida ilmiy tadqiqotlar uchun grantlar joriy qilinadi. Shuningdek, Toshkent davlat sirk binosi taʼmirdan chiqariladi”, deb taʼkidlandi.

Xalqaro maydonda oʻzbek madaniy diplomatiyasini kengaytirish, Toshkentda jahon kreativ iqtisodiyotiga bagʻishlangan filmlar yaratish dasturi ishlab chiqilishi, bunga xorijiy ijodkorlar, kinokompaniyalar hamda investorlar ham jalb etilishi, shuningdek, bolalar uchun buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot yoʻli haqida koʻp qismli animatsion filmlar yaratish zarurligi qayd etildi.

Tasviriy va amaliy sanʼat sohasini rivojlantirish boʻyicha dastur qabul qilish, Yosh rassomlar markazini tashkil etish, xattotlik va miniatyura sanʼati taʼlimini amaliyot bilan bogʻlash maqsadida milliy usulda qogʻoz tayyorlash ustaxonasi faoliyatini yoʻlga qoʻyish lozimligiga alohida toʻxtalib oʻtili.

Bundan tashqari, boshqa tillarda taʼlim olgan hamyurtlarimizni davlat tilini oʻrganishga ragʻbatlantirish choralari koʻrilishi, boshqa tillarga ixtisoslashgan maktablarda davlat tilini oʻqitish

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

soatlari koʻpaytirilishi, oʻzbek tili boʻyicha xalqaro fan olimpiadasi tashkil etish, kitobxonlik madaniyatini oshirish kabi vazifalar ijrosi uchun mutasaddilar masʼuliyati oshirildi. Shuningdek, davlatimiz rahbari tomonidan ijodiy buyurtmalar, muallif va tarjimonlarga qalam haqi koʻpaytirilishi, nashriyot va matbaa korxonalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida 5 yilga soliqlardan ozod qilish, tarjima sanʼatini munosib ragʻbatlantirish uchun Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot taʼsis etish tashabbuslari ilgari surildi.

Olam bunyod boʻlibdiki, maʼrifat va jaholat yonma-yon yuradi. Biri dunyoni, insoniyat hayotini farovonlikka eltadi, ikkinchisi bulaming barini barbod qiladi. Bugun tahlikali va notinch asrimiz qaysidir maʼnoda ilm-maʼrifatga, ziyoga ehtiyoj sezayotir.

Taraqqiyotning choʻqqisiga chiqdik, deyilayotgan ayni damlarda ham Yer yuzining koʻplab nuqtalarida urush olovi yonmoqda. Irqchilik, millatchilik, diniy radikalizm, dunyoga egalik qilish vasvasasi tez-tez oʻzining borligini bildirib turibdi.

Bunday tahlikali zamonada toʻgʻri yoʻlni topish, mamlakat va xalq farovonligini oʻylab huzur-havolatdan kechish, insonga munosib hayot barpo etish va bu yoʻlda odamlarni oʻz ortidan ergashitra olish kishidan katta masʼuliyat, bilim va fidoyilik talab etadi. Davlatimiz rahbari bugun ana shunday sifatlariga ega inson oʻlaroq oʻzining maʼnaviy jasorati bilan dunyo hamjamiyatiga oʻrnak boʻlmoqda.

Yuqorida aksariyat ishlar bugunga kelib bosqichma-bosqich amalga oshayotgani haqida aytdik. Ular nimalarda namoyon boʻlayotgani borasida ayrim misollarga murojaat qilamiz.

Maʼnaviy uygʻoqlik ilm-fan, taʼlim orqali taʼminlanadi. 2024-yildan Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi faoliyati takomillashtirilib, markaz tuzilmasi qayta tasdiqlandi. Unga koʻra, markaz faoliyatining 40 foizi raqamli targʻibotga, 30 foizi metodik taʼminotga hamda 30 foizi anʼanaviy targʻibot ishlariga qaratildi.

Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida maʼnaviy targʻibot ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish maqsadida markaz huzurida Raqamli targʻibot laboratoriyasi hamda “Jalinga” interaktiv studiyasi ochildi.

Olimlar va ijodkorlar bilan birgalikda xalqimizning milliy gʻururini yuksaltirish va vatanparvarlik hissin oshirishga oid mediamahsulotlar, videodarslar, metodik

qoʻllanmalar, podkastlar, mualliflik koʻrsatuvlari, audio va videoroliklar tayyorlash boʻyicha hamkorlik yoʻlga qoʻyildi.

Yurtimiz boʻyicha maʼnaviy-maʼrifiy ishlar bilan shugʻullanuvchi 31 ming 482 nafar maʼnaviyat sohasi vakili tarkibi shakllantirildi va ular faoliyatini tizimli monitoring qilish maqsadida “KPI.UZ” raqamli platforma loyihasi ishlab chiqildi.

Jamiyatda ijtimoiy faol fuqaroni shakllantirishga koʻmaklashish maqsadida “Ijtimoiy faol fuqaroni shakllantirish” konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqildi. Aholining turli qatlamlari bilan maʼnaviy tarbiya ishlarini tizimli tashkil qilish maqsadida 3 ta yosh toifasidagi mavjud vaziyat tahlil qilindi.

Katta yoshdagi avlod vakillari hamda oʻrta yoshdagi avlod vakillariga nisbatan kichik yoshdagi avlod vakillari 73 foiz vaqtini ijtimoiy tarmoqlarga sarflashi aniqlandi. Markaz oʻz faoliyatini shu yoʻnalishda raqamli avlod vakillari bilan tizimli ishlashga qaratib, bu boʻyicha alohida targʻibotning zamonaviy texnologiyalari joriy etilyapti. Internet tarmogʻida milliy kontentdagi mediamahsulotlar keng targʻib qilinishiga eʼtibor qaratilmoqda.

Surxondaryo viloyatida tajriba-sinov asosida “Maʼnaviyat sektori” tashkil etildi. Hududlarda “Maʼnaviy himoya” loyihasi joriy etilib, “qizil” toifaga tushgan mahallalar va ijtimoiy-maʼnaviy himoya muhoj oailar bilan ishlash tizimi yaratildi.

Haj ziyoratlardan qaytgan 15 ming hoji bilan birgalikda yoshlar tarbiyasida vatanga muhabbat, vatanparvarlik, shukronalik, oilalarda sogʻlom maʼnaviy muhitni shakllantirish, muqaddas islom dinining insonparvarlik gʻoyalari hamda milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashga qaratilgan maʼnaviy-maʼrifiy targʻibot tadbirlarini tashkil etish boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Vatanimiz mustaqilligining 33 yilligi oldidan mamlakatimiz boʻylab “Maʼnaviyat festivali” tadbirlari koʻtarinki ruhda tashkil etilib, ularga sanʼat va madaniyat sohasi vakillari, olimlar, ziyolilar, shoir-yozuvchilar, kinoaktyorlar va nuroniy hojilar jalb etildi. Shuningdek, “Turkiston” sanʼat saroyida harbiylar va

globallashev sharoitida turli geosiyosiy ziddiyatlar, qurolli toʻqnashuvlar, davlatlararo nizolar koʻpayishi barobarida axborot xurujlari ham keng tus olyapti. Bu esa oʻzligimizga toʻgʻridan toʻgʻri tahdididir. Boz ustiga, mazkur xuruj borgan sari zamonamizning tom maʼnodagi qudratli quroliga aylanmoqda.

Inson ongi va qalbini zabt etish, unga oʻz hukmini oʻtkazish, maʼnaviyatdan, milliy urf-odat va qadriyatlaridan judo etishga yoʻnaltiriladigan axborot xurujlari koʻrinmaslik xususiyatiga ega. Shunday ekan, unga qarshi milliy axborot immunitetini shakllantirish, axborot maydonida raqobatbardosh milliy kontent yaratish masalasi dolzarb boʻlib bormoqda.

“Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan chetdan, baʼzan hatto mamlakatimizning oʻzida ham Konstitutsiya va qonunlarimizga zid pozitsiyalar ilgari surilmoqda. Baʼzi guruhlar orasida diniy qarashlarni Konstitutsiya va qonunlarimizga qarshi va ulardan ustun qoʻyish holatlari kuchaymoqda. Diniy eʼtiqod niqobi ostida yoshlarni maʼrifatga emas, jaholatga undayotgan kishilar paydo boʻlmoqda”, degan edi Prezidentimiz Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat kengashi yigʻilishida.

Davlatimiz rahbari Xavfsizlik kengashining 2024-yil 12-yanvardagi kengaytirilgan yigʻilishida ham bu masalaga alohida eʼtibor qaratib, zamonaviy tahdidlarga qarshi munosib kurashish uchun, avvalo, axborot makonida milliy kontent yaratish zarurati, dunyodagi voqealarga milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan baho berish lozimligi, aks holda, tashqaridan turli axborot xurujlari kirib kelishiga imkon yaratib qoʻyilishi, yangilik va axborotga ehtiyojlarining boshqalar tomonidan toʻldirilishiga sabab boʻladigan noxush oqibatlardan ogoh boʻlishga daʼvat etdi.

Bugungi axborot makonida qanday mumamlor bor, oʻzbek milliy kontenti yaratilishida xorij tajribasining qaysi jihatlarga eʼtibor qaratish lozim, xorijiy internet sahifalarida uni qanday aks ettirish mumkin? Bu singari savollar milliy kontent yaratilishiga tizimli va koʻp tomonlama yondashish masʼuliyatini talab etadi. Darhaqiqat, bu hozirgi davrning ustuvor talabi va shartidir. Shu bois, bu mavzu milliy mediamakonimizda koʻp muhokama qilinmoqda, turfa fikrlar bildirilmoqda. Filologiya fanlari doktori Nozima Murotovaning taʼkidlashicha, milliy kontent oʻz-oʻzini ifoda etish, tarqatish, marketing yoʻli nashr etish uchun nutq, yozuv yoki har xil sanʼat turlari kabi biror vosita orqali ifodalinishi kerak boʻlgan axborot vositasi hisoblanadi.

“Bu borada bir necha jihatlari farqlay bilyoshimiz lozim. Kontent siyosiy, maʼnaviy-maʼrifiy, ijtimoiy, taʼlimga oid yoki koʻngilochar mavzularda boʻlishi mumkin. Zero, inson ongi va dunyoqarashiga yoʻl oʻgʻaylar turli axborotlar orqali singdiriladi va bu jarayonda “yumshoq kuch”ni ifoda etuvchi yuqorida sanab oʻtilgan har bir yoʻnalishning oʻz oʻrni bor”, deydi mutaxassis.

Ekspertlar bu borada mamlakatimizda katta salohiyat mavjud ekanini, turli sohalariga ixtisoslashgan gazeta, tele va radiokanallar, mahalliy nashrlar va nodavlat ommaviy axborot vositalarini bugungi kun talabi va xalqimiz ehtiyojiga mos milliy kontent bilan toʻldirish zarurligini qayd etadi. Bu vazifalarni toʻlaqonli bajarish uchun koʻp yillik ish tajribasiga ega, malakali jurnalistlar qatori yosh ijodkorlarni ham kashf etish va jarayonga kengroq jalb qilish lozim.

Kutilgan maqsadlarga erishishda internet nashrlar va ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatini ham samarali qoʻllash muhim. Zero, bugun dunyo ahlining 60 foizdan koʻprogʻi shu manbalardan foydalanadi. Demak, insoniyat qaysi axborot makonida yashayotgan boʻlsa, axborotni odamlarga yetkazishda oʻsha vositalardan unumli foydalanish kerak.

Dunyo kundan kunga kengayib borayotgan olamshumul oʻzgarishlar davrida yashamoqda. Bu oʻtgan asrda barcha qitʼalarni qamrab olgan ilmiy-texnik yuksalish natijasidir. Iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotda erishilgan va globallashev nomi ostida tanilgan yutuqlar aynan shu yuksalish bilan bogʻliq. Biroq hayotda har bir narsaning ijobiy va salbiy jihati boʻlganidek, globallashev ham bundan mustasno emas.

— Kundalik hayotimizning assosiy qismiga aylanib borayotgan internet va undan kelayotgan zararli maʼlumotlar milliy oʻzligimizga raxna solishiga mutlaqo yoʻl qoʻyib boʻlmaydi, — deydi siyosiy fanlar boʻyicha falsafa doktori Suhrob Roʻmonov. — Bugungi axborot maydonida milliy kontentning yoʻqligi milliy oʻzlikning yoʻqotilishi sifatida baholalanishi shart va lozim. Shu bois, axborot xuruj keng avj olayotgan maydonda nafaqat raqobatbardosh milliy kontentni yaratish va u orqali axborot xavfsizligini taʼminlash zarur, balki uni xorijiy axborot resurslarida ham doimiy aks ettirish vazifasi davrimizning kechiktirib boʻlmaydigan talabi hisoblanadi.

Demak, milliy kontentimizga eʼtiborsiz boʻlsak, milliy axborot makonimizga xorijiy OAVlar va ulardagi axborotlarning kirib kelishiga yanada kengroq imkoniyat yaratib bergan boʻlamiz. Milliy axborot makonimiz yaratib kirib kelgan axborot bilan toʻlib-toshar ekan, bu holat milliy kontent rivojlantirish toʻxtab qolishiga, bu esa, oʻz navbatida, milliy kontentning yoʻqolib ketishiga sabab boʻladi. Uning yoʻqolishi esa bora-bora milliy oʻzligimiz yoʻqolishiga olib keladi.

Maqola avvalida yozuvchini yozuvchi qilgan uning kuzatuvlari, degan tashbehni jumalistlarga ham mengzagan edik. Jamiyat taraqqiyotiga befarq boʻlmagan, jarayonlarning ichida boʻlishni chin koʻngildan istovchi qalam sohibi sifatida aytishimiz kerakki, yuqoridagi tashabbus va takliflar orzularimiz osmonidagi oftoq misoli chaqnab turibdi. Uning taftidan qoʻr olib, maqsadlarimiz roʻyobiga, albatta, erishamiz.

“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati DM

MUASSIS:
Oʻzbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalanadi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “Kolopak” MCHJ masʼul.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 16.

38993 nusxada bosildi.
Ofset usulida bosilgan. Qogʻoz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolopak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Oʻzbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar koʻchasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bahor Xidirova
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Zafar Roʻziyev

Manzilibiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz koʻchasi, 85-uy

OʻzA yakuni — 20:15 Topshirildi — 22:00

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va eʼlonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05